



O'ZMU XABARLARI
ВЕСТНИК НУУЗ
АСТА NUUZ

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI**

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2023
1/8**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Y.S.ERGASHOV – f.m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdullayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Shirinova R.X. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Kurbonova G.S. – fil.f.d., dots.

Djafarova D.I. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **Z.A.PARDAYEV**

TOSHKENT – 2023





Iroda BAHRONOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

NavDPI dotsenti, PhD N.J.Yarashova taqrizi asosida

TOHIR MALIK ASARLARIDA “FARZAND” VA “QO'RQUV” KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada konsept atamasining ilmiy-nazariy asoslanishi, mohiyati, bu tushuncha haqidagi rus va o'zbek tilshunos olimlarining fikrlari haqida so'z boradi. Eng asosiysi, “qo'rquv” konseptining ahamiyati, “Talvasa” asarida qo'llangan “qo'rquv” konseptining o'ziga xosligi aks ettiriladi va tahlil qilinadi. Qolaversa, yosh konsepsiyasi, farzand konsepti hamda u bilan bog'liq tushunchalar xususida so'z yuritiladi. Bu boradagi fikrlar o'rganiladi va Tohir Malikning “Alvido, bolalik” asaridagi parchalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: konsept, “farzand konsepti”, yosh konsepsiyasi, oila, ota-ona, millat, “qo'rquv” konsepti, lingvokulturologiya, konsept mohiyati.

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОНЯТИЯ “РЕБЕНОК” И “СТРАХ” В РАБОТАХ ТАХИРА МАЛИКА

Аннотация

В данной статье рассматривается научно-теоретическое обоснование термина понятие, сущность, мнения русских и узбекских лингвистов об этом понятии. Главное-отражена и проанализирована значимость понятия “страх”, своеобразие понятия “страх”, использованного в работе “Талваса”. Кроме того, рассматривается понятие возраста, понятие ребенка, а также связанные с ним понятия. Мнения по этому поводу будут изучены и проанализированы на основе отрывков из “Алвидо, болалик” Тахира Малика.

Ключевые слова: понятие, “понятие ребенка”, понятие возраста, семья, родительство, национальность, понятие “страх”, лингвokulturologiya, сущность понятия.

LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF THE CONCEPT OF “CHILD” AND “FEAR” IN THE WORKS OF TAHIR MALIK

Annotation

This article discusses the scientific and theoretical justification of the term concept, essence, opinions of Russian and Uzbek linguists about this concept. The main thing is that the significance of the concept of “fear”, the originality of the concept of “fear” used in the work of “Talvasa” is reflected and analyzed. In addition, the concept of age, the concept of a child, as well as related concepts are considered. Opinions on this issue will be studied and analyzed on the basis of excerpts from “Alvido, bolalik” Tahir Malik.

Keywords: concept, “the concept of a child”, the concept of age, family, parenthood, nationality, the concept of “fear”, linguoculturology, the essence of the concept.

Kirish. Konsept – hissiyotlarda, emotsiya va tasavvurda, ishonch hosil qilishda, urf-odat, diniy e'tiqodda namoyon bo'ladigan hodisa, u til birliklari vositasida ifodalab beriladi [15]. Har bir millat ongida o'ziga xos konseptual tushunchalar mavjud, ular zamon ruhiga qarab o'zgarishi, ba'zan esa eskirib, o'z ta'sirchanligini yo'qotishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Ba'zi tilshunoslarning konseptual tizimini “olamning konseptual manzarasi” deb atashmoqda. Shuning barobarida, mazkur istiloh umumiy olamning lisoniy manzarasi fonida o'rganiluvchi muayyan tilga xos konseptlar asosida o'sha til tashuvchilarining olam lisoniy manzarasini kashf etishiga xizmat qilishini ta'kidlashmoqda [8]. Olamning lisoniy manzarasi nihoyatda keng tushuncha, xalqning etnomadaniyati, mifologiyasi, falsafasi, folklori kabilarni o'z ichiga oladi [9]. Tilshunoslarning bu boradagi qarashlari shu darajada xilma-xilki, ushbu masala yuzasidan haligacha bahs-munozaralar davom etmoqda. Bu holatni prof. N.Mahmudov ham ta'kidlagan [7]. Bizningcha, konsept – oddiy lisoniy tushuncha emas. Bu tushuncha bir qadar kengroq mohiyatga ega. Olima D.Xudayberganova ham konseptning ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma ekanligini ta'riflar ekan, konsept “bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va

lingvokulturologik jihatlarini namoyon etishini, chunki, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat berib” turganligini ta'kidlaydi [2]. Kuzatishlarimizga ko'ra, konsept va tushuncha munosabati olimlarni eng chalg'ituvchi sohadir. Ko'pchilik konseptni tushuncha bilan teng, yana boshqalar konsept tushuncha tarkibiga kiradi, deb hisoblaydi [4,5]. Konsept va tushuncha umumiy hamda farqli tomonlarga ega. Ko'rsatilganidek, “... ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi, ikkalasining ham boshlang'ich nuqtasi voqelikdagi hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liq” [10]. Voqelikdagi predmet, hodisa, harakat haqidagi bilim tushuncha bo'lsa, ushbu bilimga til tashuvchisining kognitiv, madaniy-mentalital bahosi konseptdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tasniflash, tavsiflash, leksikografik va kognitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kognitiv lingvistikaning asosiy tekshirish obyektini til va nutq orqali o'zining ichki dunyosi va bilimlarini realizatsiya qiladigan inson ekan, insonning ongi va tafakkurida shakllanadigan olamning konseptual manzarasi va olam lisoniy manzarasining shakllanishiga baza bo'lib

xizmat qiladigan konseptosferani jiddiy tahlildan o'tkazish lozim bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunosligida o'zining o'kir qalami bilan yorqin iz qoldirgan ijodkorlardan biri Tohir Malikdir. Adibning har bir asarida tilshunoslikning turli jihatlarini ko'rishimiz mumkin. "Talvasa" asarini oladigan bo'lsak, unda insonlarning qo'rquvi, voqealar rivoji kishiga g'ulg'ula solishi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Aynan asardagi "qo'rquv" konsepti alohida ahamiyatga ega.

Avvalo, bu atamaning kelib chiqishi va olimlarning fikrlariga yuzlanadigan bo'lsak, rus tilshunosligida konsept tushunchasi XX asming birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. S.Askoldovning fikricha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko'ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. Lisoniy makonda mavjud bo'lgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining o'ziga xosligini belgilaydi [1]. Yana bir olim Y.S.Stepanov o'zining tadqiqotlarida konsept so'zining etimologiyasiga yuzlanadi. Konsept lotin tilidagi conceptus - "tushuncha" so'zining kalkasidir. U ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligida ham "konsept" tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.S.Safarov "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet- hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna-konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi"ni ta'kidlaydi [10].

Lingvokulturologiyada konsept atamasi har bir xalqning o'ziga xos jihatlarini namoyon qilishga yordamlashadi. "Talvasa" asaridagi "qo'rquv" konseptini oladigan bo'lsak, u kishilarning hayajonini, talvasa ichidagi o'y-xayollarini va ruhiy holatini ifodalaydi: - Teringni shilib, go'shtingni somsachilargami yo kolbasachilargami topshirvoraman. Harom o'lgan mol go'shtiga qo'shib yuborishsa yeyishli bo'ladi. Ota-onang bormi?

- Ha...bor. Suyaklaringni axlatxonaga tashlatsam, borib o'sha yerdan topishadi. Suyagingdan tanishar, a?

Akulaning bu po'pisalari yolg'on bo'lsa ham, yigitning qalbiga g'ulg'ula solib, rangi bo'zday oqardi. Akulaga nisbatan "kichik baliqcha"da insof bordir, degan umidda unga najot ko'zlari bilan mo'llillab boqdi. (59-60-bet)

Yuqoridagi parchada ham aytilgan so'zlarning dahshati, garchi yolg'on bo'lsa-da, kishiga qanchalik ta'sir etishi tasvirlangan. Bir necha soniyalik qo'rquv qahramonni esankirab qo'ydi, ammo bir necha oy qo'rquv olamida kun kechirgan Asror obrazi ham mavjud. Uning holatiga yuzlanadigan bo'lsak: "Qamoqdan chiqib kelgan Qamariddinning qahriga uchrash vahimasi bolalik chog'laridanoq kaltakdan qo'rquvchi Asror uchun g'oyat ulug' fojea bo'lib tuyulardi... Yarim yillik qo'rquv otashida yashagan Asror o'zi ham kutilmagan holda Qamariddinning mehriга sazovor bo'lib qoldi". (76-77-bet)

Ushbu o'rinda vahima, kaltakdan qo'rqish, ulug' fojea, qo'rquv otashi kabi leksik birliklar qo'rquv konseptining mohiyatini yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, asar davomida nafaqat qahramonni, balki kitobxonni ham qo'rquv iskanjasiga tortuvchi voqealar mavjud. Jumladan, kichik bir hodisadan kelib chiqqan pichoqlashish jarayoni ko'nglimizga g'ulg'ula solishi tabiiy. "Ranglari oqarib, qo'rquvdan dir titrayotgan Dilfuza hatto qayoqqa qarab yurishni bilmay qolgan edi. Asror ham buyruqqa qanday ravishda itoat etishni bilmay garang edi". (98-bet) Albatta, bunday dahshatli holat kishining ko'z oldidan ketishi amri mahol. Pichoqlashuvdan so'ng o'ziga kela olmay yurgan Asror ham uyda, ko'chada, vaholanki, hech

qayerda halovat topolmay qoldi. "Uydan shoshilib chiqishga chiqdi-yu, yuragiga qo'rquv oralab, atrofga olazarak qarab oldi. Litseyga yetib borgunicha hamma narsaga hadiksirab qarayverdi. Ayniqsa, militsionerga ko'zi tushganda tanasidan joni chiqib ketganday tuyuldi. Yo'lda unga qarab qo'ygan odamlarning hammasi "Kechagi qotil senmisan?" deganday bo'laverdi". (154-bet) Qo'rquv dahshati uning qotil ekanligini har dam yodiga solaverdi.

Bilamizki, tilimizda farzand konsepti obrazli va qadriyatli munosabatlarga asoslangan tarzda bo'ladi. U "ota", "ona", "millat", "oila" tushunchalari bilan chambarchas bog'liqdir. Tohir Malikning "Alvido, bolalik" asari misolida qaraydigan bo'lsak, mentalitetimizga xos odat bo'lgan onaning farzandiga g'amxo'rlikni ko'rishimiz mumkin: "Asror orqasiga tisarilib, oshxonaga qaytdi. Balkon eshigini qattiq yopdi. Jo'mrakdan suv oqizib yuziga tutdi. Orqada sharpa sezib, sapchib tushdi. Qarasa - onasi. Sinchkov nazarini qadab turibdi.

-Senga nima bo'ldi? - dedi u Asroming sochini silab. Asror onasidan ko'zini olib qochdi, keyin yutiniib:

-Uyqum kelmayapti, - dedi.

-Charchagansan. Kechagi to'yda uxlatishmabdi, eshitdim. Kirib yot, uyqung kelmasa, sana. Yuzgachami, minggachami, sanayver. Uxlaganingni bilmay qolasan.

Asror onasiga qarab oldi. "Onamning soddaliklari ham yaxshi", deb o'yladi-da, xonasiga qarab yurdi.

"Urinib qolyapti, bdam boyaqish, - deb o'yladi Ma'suma uning izidan qarab, - to'yga yubormay desam bo'lmasa, borsa bu ahvol. Erta-indin havo yurishib ketssa, to'y yana ko'payadi. Bolamga yana javr. Bormasa otasiga javr. Topgan-tutganlari shularga-da axir, ko'tarib ketarmidi. Yaxshi hamki Asrorim buni tushunadi..." (5-6-b.)

Yuqoridagi parchada ko'rib o'tganimizdek, o'zbek onasining soddaligi, farzandiga mehribonchiligi aks etgan. Farzand xoh qiz bo'lsin, xoh o'g'il - ota-ona uchun bu ahamiyatsiz, ulardan bor mehrini ayamaydi. Yana bir o'zbekona an'analarimiz borki, ular qon-qonimizga singib ketgan. Bu odatlar - ota-onani e'zozlash, ularga tik boqmaslik, ularni haqorat qilishlariga aslo yo'l qo'ymaslik, aytganlariga amal qilish va hokazo. "Alvido, bolalik" asarining qahramoni Asror ham otasi uni qancha azoblasa-da, bu ozorlarga e'tibor qilmaydi. Otasining chizgan chizig'idan chiqmay, aytganlariga so'zsiz rioya qiladi, to'ylarga birga boradi. Garchi otasi uning o'qishiga to'sqinlik qilsa ham, bunga qarshilik bildirmaydi.

"...Professor bo'lishni orzu qilardim. Men orzuyimga yetmagunimcha tinchimayman. Faqat.. men emas, sen professor bo'lasan. Seni otang odam qilolmaydi, men odam qilaman. Otang nima nima qildi? Seni zo'r litseydan chiqarib olib, yonida childirma chaldirib yuribdimi? Seni men o'qitaman. Tagingda "mers", o'sha otarchi otang ham seni ko'rganida ta'zim qilib turadi.

-Adamni bunaqa haqorat qilmang.

-Adang podlets odam. Sening qadringga yetmaydi. Men yetaman qadringga... Adangga alohida jazo o'ylab qo'rganman.

-Adamga tegmang.

-Qo'rqma, adangni chertmayman, lekin vaqti kelib o'qishingga to'sqinlik qilgani uchun afsuslanadi. Sendan kechirim so'raydi.

-Kerakmas". (78-79-b.)

Asarda shunday otalar ham tilga olinganki, farzand degan tushuncha go'yo unga yotdek tuyuladi. Buni biz asar qahramoni Salimning otasi misolida ko'rishimiz mumkin: "Salimning otasi bolaligida oyog'ini sindirib olganmi yo tug'ma cho'loqmi, harholda hassasiz yurolmaydi. Qaldirg'och mo'ylovini qo'yib, sochni qirdirib do'ppi kiyib yuradigan bu odamning mehnatga tobi - toqati yo'q. Shamollasa aksirishga ham erinadigan ota bolasi nechtaligini ham bilmasa kerak. O'n bir bola nima yeb, nima ichyapti, ikki qiz nima uchun erga

chiqmay turib tug'ib oldi, endi ularning turish-turmushi nima bo'ladi – ishi yo'q. Hammasiga Salimning onasi balogardon..."(31-b.).

Farzand tushunchasini uning voyaga yetgan davridan boshlab jins nuqtayi nazaridan farqlash boshlanadi. Ya'ni endi ular umumiy nom bilan emas, alohida nomlar bilan ataladi: "o'g'il", "qiz". Buni o'zbek xalqida har bir jins vakillarining tarbiyasiga bo'lgan e'tibor turfa xilligi bilan ifodalash maqsadga muvofiq. Aytish kerakki, o'g'il bolaga ham, qiz farzandga ham xalqona qarash bo'yicha zaruriy tarbiya oilasida, ya'ni ota-onasi tomonidan beriladi. Ammo yuqorida aytilganidek, Salimning otasi kabilar ham jamiyatimizda uchrab turadi.

Xulosa. Xulosa o'mida aytish mumkinki, farzand konsepti keng ma'noli va har bir millatga xos tushuncha. Bu konsept turi o'zbek xalqining shaxs haqidagi qarashlari, oilaviy an'analar va farzand borasidagi xalqona xususiyatlarni aks ettiradi. Umuman olganda, bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Tohir Malikning har bir asarida o'ziga xos konsept turlarini uchramiz. Ularning ichida "qo'rquv" konseptining ahamiyatli ekanligi, insonlarda uchraydigan qo'rquv, talvasa kabi ruhiy kechinmalarning qalamga olingani va adib tomonidan mahorat bilan qo'llanilgani yuqorida ta'kidlab o'tildi.

ADABIYOTLAR

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово [Текст] /С.А. Аскольдов //Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – Москва: Academia, 1997. – С. 267-280.
2. Bahronova D. Olam lisoniy manzarasi tasvirida konsept va konseptosfera / Xorijiy filologiya, 2019. – № 3. – В. 64.
3. "Jahon adabiyoti" jumali. – Toshkent, 2013. №2.
4. Калищук Д.М. Базовые концепты современного англоязычного дискурса. Концепт "демократия". – Луцк, 2009. № 16: Филологические науки. Языкознание. – С. 81–85.
5. Карасик В.И. Ценностная картина мира: межкультурный аспект / Языковое сознание: содержание и функционирование. – Москва: РАН ИЯ, 2000.
6. Луи Базен. Зарубежная туркология. – Москва, 1986.
7. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiq yo'llarini izlab / O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. // <https://www.google.com/behzodfazliddin.uz-til-tadqiqi>. – В. 3-16.
8. Пименова М.В. Концептуальная картина мира //Языковая картина мира: Учебная пос. – Изд. 3-е доп. – Санкт-Петербург: СПбГУ. 2011. – Серия "Славянский мир". – Вып. 7. – С. 75–91.
9. Попова З.Д. Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. – Воронеж: Истоки, 2007. – С. 59.
10. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – В. – 15–16.
11. Степанов Ю.С. Константы Словарь русской культуры [Текст]/ Ю.С.Степанов. – Москва: Академический проект, 2004.
12. Tohir Malik. Talvasa. – Toshkent: Sharq, 2012.
13. Tohir Malik. Alvido, bolalik. – Toshkent: Sharq, 2009.
14. Tohir Malik. Alvido, bolalik. – Toshkent: Sharq, 2009.
15. Черкашина Е.В. Национальная картина мира и её репрезентация в повестях Н.В.Гоголя "Майская ночь, или утопленница", "Страшная месть" // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. V междунар. науч.-практ. конф. – Новосибирск: СибАК, 2011.
16. Чижова Л.Е. Специфика репрезентации концепта здоровье в речевом этикете // Филология. Журналистика серия. – Москва, 2009. – С. 46-49.

Rasulova H. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda mariya montessori metodikasidan foydalanish.....	175
Raupova H. Axloqiy meyorlar va qadriyatlar – bo'lajak o'qituvchining huquqiy ijtimoiylashtirishning asosi.....	177
Raximova Sh. Arab tilini o'rgatishda baholash va uning o'qish ko'nikmasidagi ahamiyati.....	181
Raxmatova X. Xoja Ahror Valiy va "Vaahdat ul-vujud" falsafasi.....	184
Ro'ziyeva G. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyaga tayyorlash.....	187
Toshbekova M. Ma'naviyatga qarshi tahdidlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	190
Tulyayev A. Zamonaviy shaxsda erkinlik va ijtimoiy ma'suliyat tuyg'usini yuksaltirishning ahamiyati.....	193
Turdaliyev B. "Bahs-munozara" metodining filologik yo'nalishdagi talabalar og'zaki nutq ko'nikmalarini takomillashtirishda qo'llanilishi.....	196
Умарова Ф. Эффективная коммуникация – ключ к обеспечению личностно-ориентированного образования.....	199
Xayrullayev D. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy sifatlarni raqamli ta'lim muhitida rivojlantirish texnologiyasi.....	202
Hodjayeva O. Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlarining kasbiy-shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	206
Haitov A. Yosh voleybolchilar jismoniy sifatlarining o'zaro aloqadorligi.....	209
Shamuratova D., Gulomova F., Nasulloyev R. Learning about sustainable development goals through english language teaching.....	212
Shermanov E. Daxldorlik – mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy yuksaltirishning ijtimoiy-axloqiy omili sifatida.....	215
Shodiev J. Sharqona qadriyatlar va tasavvuf ta'limotida inson kamoloti va qadri masalasi.....	218
Ergashev S. Simulyatorlarda o'qitish imkoniyatlarining samaradorligini baholash.....	221
Filologiya	
Abdullayeva K. Badiiy matn tahlilda takrorlarning ahamiyati xususida.....	224
Abdurahmanova N. "Instruktiv diskurs" tushunchasi va uning metodologiyasi.....	227
Аминова Г. К вопросам изучения категории вежливости в английском, русском и узбекском языках.....	230
Bahronova I. Tohir Malik asarlarida "farzand" va "qo'rquv" konseptining lingvokognitiv xususiyatlari.....	232
Berdiyoroova R. Frazologik birliklarda komponentlarni almashtirish.....	235
Zaripov R. O'zbekistonda tillararo munosabat va ularning menejmenti.....	238
Ziyotov F. She'r tuzilishi va badiiy xususiyatlari.....	242
Irkayeva N. O'zbekiston televideniya-sida xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning formati.....	245
Kadirov B. Ispan va o'zbek xalq latifalarining lingvomadaniy tadqiqi.....	248
Mashrapova G. Safar motivi va uning nazariy asoslari.....	251
Mirsanov G'. Matnda Aspektual Semantikaning Ifodalanishi.....	254
Mo'minova M. "suv" komponentli barqaror birikmalarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	257
Mukhamadiyev A. Lexical groups of verbal aggression as atype of emotional response.....	260
Ochilova Z. Maqollari va matallar – xalq mentalitetini ochib beruvchi omillar.....	263
Rasulova M. Dramatik diskurs tavsifi va uning pragmatik xususiyatlari.....	266
Sarbarova D. Lingvopragmatika va uning shakllanishiga doir nazariy qarashlar tahlili.....	269
Sobirova N. Tahdid aktining pragmatik asoslari.....	272
Sobirova N. Zamonaviy tarjimaning publitsistikadagi o'rni: chet el yangiliklari ruknida.....	275
Sotvoldiyev S. Ibn Molikning arab tilshunosligida tutgan o'mi va nazariy qarashlari tahlili.....	278
Turdibekov M., Jabborov B. Toponimlar bilan bog'liq leksikografik talqinlar.....	281
O'rishev A. Engaging activities for building a robust vocabulary.....	284
Усмонова М. Tilshunoslikda predloglarning qo'llanilishi, ularning til birligi sifatida ifodalanishi.....	288
Hakimjonova R. Poetik motiv tushunchasining nazariy talqinlari.....	291
Shamuratova G. XX asr nemis adabiyotida yoshlar mavzusi (adiblar Genrix Mann, Tomas Mann, Erix Mariya Remark va Anna Zegers asarlari misolida tahlil).....	294
Sharipova Sh. Graduallik mazmunining matnda ifodalanishi.....	297